

**KONFERENSIYALAR .COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**AVGUST, 2025**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiylar.com>



**KONFERENSIYALAR .COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**TOSHKENT-2025**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

#### **Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat*

*KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI*

*MUAMMOLARI..... 6-9*

*Iskandarov Orifxon*

*TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI ..... 10-12*

*Odinayev Mirjalol*

*"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA*

*QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA*

*SOLISHDA INNOVATSION YECHIM ..... 13-18*

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Karimov Nurbek*

*TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON*

*TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI ..... 19-22*

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

*TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI ..... 23-25*

*Xalilov Baxodir*

*ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY*

*VILOYATI MISOLIDA ..... 26-31*

*Xoliqova Ra'noxon*

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" ..... 32-34*

*Xasanova Nargiza*

*YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB*

*AHAMİYATI ..... 35-38*

### IQTISODIYOT FANLARI

*Salomov Temurbek*

*THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:*

*A CASE STUDY OF UZBEKISTAN ..... 39-43*

*Raxmanov Ulugbek*

*TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ*

*TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH ..... 44-45*

*Toshtemirov To'lqin*

*KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI ..... 46-49*

*Mansurova Sayyora*

*INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA*

*ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI ..... 50-53*

*Rajabov Alibek*

*INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH ..... 54-57*

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

*EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM*

*GLOBAL EXPERIENCES ..... 58-60*

## **FALSAFA FANLARI**

*Abdullayev Sodiqjon*

*MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI*..... 61-66

*Gafurova Munojat*

*O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI*..... 67-70

*Davronov Bahodir*

*SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI*..... 71-76

*Latipov Sardor*

*KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI* ..... 77-81

## **FILOLOGIYA FANLARI**

*Xoliyorova To'lg'anoy*

*O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI*..... 82-83

*Ro'ziyev Temur*

*ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI* ..... 84-92

*Gulmuradova Sobira*

*"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI*..... 93-95

*Qosimova Malika*

*SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA* ..... 96-99

*Bahromjonova Shahnoza*

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:  
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL* ..... 100-102

*Ayimbetova Damekhan*

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI  
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* ..... 104-107

## **YURIDIK FANLARI**

*Komilov Avazbek*

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,  
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

*Shamsitdinova Manzura*

*TEACHING LISTENING COMPREHENSION* ..... 111-112

*Xadjiyev Azizbek*

*"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI*..... 113-116

*Уктамов Комрон*

*РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН*..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
<b>TIBBIYOT FANLARI</b>	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
<b>PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH .....</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

## **HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMIY MEROsi: FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL**

**Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,**

“Keksalik gashti” jurnali va  
“Nuroniy” gazetasi mas’ul muharriri  
O’zDJTU “Xalqaro jurnalistik” fakulteti magistranti  
Toshkent, O’zbekiston.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o’zbek va yapon folklorshunosligi asoschilar bo’lmish Hodi Zarif hamda Yanagita Kunioning ilmiy faoliyati qiyosiy tahlil etiladi. Ularning xalq og’zaki ijodiyotini to’plash, tadqiq qilish va ilmiy asoslashdagi o’rni, metodologiyasi va ilmiy merosi tahlil etilib, umumi va farqli jihatlar ochib beriladi.

**Kalit so’zlar:** folklor, Hodi Zarif, Yanagita Kunio, og’zaki ijod, milliy an’ana, etnografiya.

## **THE SCHOLARLY LEGACY OF KHODI ZARIF AND KUNIO YANAGITA: A COMPARATIVE ANALYSIS IN FOLKLORE STUDIES**

**Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna,**

Responsible editor of the magazine “Keksalik gashti” and  
the newspaper “Nuroniy”  
Master’s student at the  
Faculty of International Journalism, UzSWLU  
Tashkent, Uzbekistan.

**Annotation.** This article presents a comparative analysis of the scholarly work of Khodi Zarif and Kunio Yanagita, the founding figures of Uzbek and Japanese folklore studies. It examines their contributions to the collection, research, and theoretical grounding of oral folk creativity, along with their methodology and academic legacy. The article highlights both commonalities and differences in their approaches.

**Key words:** folklore, Khodi Zarif, Kunio Yanagita, oral tradition, national tradition, ethnography.

Folklor — bu xalqning og’zaki ijodiyoti, ma’naviy dunyoqarashi va tarixiy xotirasining yorqin ifodasidir. U avloddan-avlodga og’zaki tarzda o’tib kelgan ertaklar, afsonalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, marosimlar va xalq qo’shiqlari kabi janrlarni o’z ichiga oladi. Folklor nafaqat xalqning estetik tafakkurini namoyon etadi, balki uning ijtimoiy hayoti, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari va qadriyatlarini ham o’zida mujassam etadi.

Yapon folklorshunos olimi Yanagita Kunioning ta’biri bilan aytganda “Folklor — bu xalq hayotining ko’zgusidir. Unda ularning e’tiqodi, urf-odatlari, tili va ko’zga ko’rinmas tafakkur izlari saqlanadi” [1]. Folklor — xalq ijodiyoti; xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar (ertak, doston, qo’shiq, lapar, masal, maqol, matal, topishmoq va boshqalar) [2]. Uni to’plash, o’rganish va ilmiy tahlil etish bilan shug’ullanadigan olimlar esa folklorshunoslар deb ataladi. Ular milliy madaniyatni tiklash, asrash va kelajak avlodga yetkazishda muhim vazifani bajaradi.

O’zbek folklorshunosligida Hodi Zarif (Zarifov Hodi Tillayevich 1905-1972) qanday ahamiyat kasb etgan bo’lsa, yapon folklorida shunga o’xshash rol Yanagita Kunio (1875-1962)ga tegishli. Har ikki olim folkloarning milliy, ma’naviy va ilmiy ahamiyatini ochib berishda

ulkan hissa qo'shgan. Ular ijtimoiy-adabiy sohalarda faol bo'lib, o'z faoliyati va ta'bir joiz bo'lsa aziz umrini xalq og'zaki ijod namunalarini to'plash, yozib olish, chop etish va tahlil qilishga bag'ishlaganlar.

Yanagita Kunio (asli ismi Matsuoka Kunio bo'lgan) 1875 yil 31 iyulda Yaponiyaning Xyogo prefekturasi, Kanto regionida joylashgan Xara qishlog'ida samuray oilasida tug'ilgan [3]. Hammasi 1887 yili Kunio Tokio shahriga o'qishga kelishidan boshlangan bo'lsa ajab emas. Poytaxtda bo'lajak ijodkor yozuvchi Mori Ogay bilan tanishadi va o'sha kundan adabiyot olamiga qadam qo'yadi.

Yanagita Kunio 1910 yilda eng mashhur asari bo'lmish — "Tono hikoyalari" (遠野物語) kitobini nashr etadi. Mazkur asarda mamlakatning shimoliy-sharqiy qismi folklori tasvirlangan bo'lib, unda 119 ta rivoyat va afsonalar jamlangan. Yanagita jamlanmadagi rivoyatlarni Tono qishlog'ilik Sasaki Kidzenden yozib olgan. Ta'kidlash joizki, ushbu jamlanma yapon folkloristikasining ilk va eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi.

1913 yilda olim "Mahalliy tadqiqotlar" (郷土研究) jurnalining muharriri etib tayinlanadi. Folklorshunos olim mazkur jurnalda xalq e'tiqodlari haqida bir qancha maqolalar chop etadi. 1935 yilda Yanagita folklorshunoslik bo'yicha konferensiya tashkil qilib, folklor jamiyatini tuzadi. 1947 yilga kelib u o'z ish joyini "Folklor instituti"ga aylantiradi. 1949 yilda esa "Yapon san'at akademiyasi" va "Yapon ilmiy akademiyasi" a'zosi bo'lgan olim shu yilning o'zida "Folklor jamiyatni" ni qayta tashkil etib, uning birinchi raisi etib saylanadi. Shunday qilib, 1949 yilda tashkil topgan "Yaponiya folklorshunoslik jamiyatni" (日本民俗学会) asoschisi — mashhur yapon olimi Kunio Yanagita hisoblanadi. U mazkur jamiyatning asosiy tashabbuskori va birinchi raisi bo'lgan.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, Yanagita Kunio yapon folklorshunosligidagi xalqning hayoti, turmush tarzi, odatlari va an'analarini o'rganuvchi fan — "minzokugaku" (民俗学) atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Mazkur fan o'quvchiga yapon xalqining tarixi va madaniyati haqida to'liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

O'zbek folklorshunosligi asoschisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mukofoti laureati professor Hodil Zarif (Hodi Tillayevich Zarifov) 1905 yil 20 martda Toshkent shahrida tabib oilasida tug'ilgan. Dastlab o'zi istiqomat qilgan hovlidan 50 qadamcha narida joylashgan Moyul ko'chadagi Yusufxon domla maktabida, keyin bir muddat rus-tuzem maktabida, 1916 yildan jadidlarning yangi usuldag'i maktabida, qariyb bir yilga yaqin O'zbek bilim yurtida (otasi vafot etgach, oilaviy qiyinchiliklar tufayli uni tamomlay olmagan), 1923-1926 yshglarda Boku o'qituvchilar seminariyasida (Dorulmualliminda) o'qigan. 1923 yildan folklor va etnografiya materiallarini yozib olishga kirishgan [4].

Hodi Zarif o'zbek folklorida xalq dostonlari, maqollar, ertaklar, qo'shiqlar va epik janrlarni ilmiy asosda to'plash va chop etishda samarali faoliyat olib borgan olimlardan. Uning asosiy yo'naliishi — folkloarning madaniy va tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish, shuningdek, xalq ijodkorlarining shaxsiy merosini tahlil qilishga bag'ishlangan. Professor Hodil Zarifning xalq og'zaki ijodini o'rganish va targ'ib etish sohasidagi muhim xizmatlaridan biri — noyob folklor asarlarini o'z vaqtida keng jamoatchilikka yetkaza olganidir. U folklor asarlarini ilmiy asosda, ommabop shaklda nashr qilish prinsiplarini ishlab chiqqan va bu metodlar hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Hodil Zarif o'zbek folklorining badiiy va ma'naviy jihatdan qimmatli

durdona namunalarini nashrga tayyorlash va ilmiy muomalaga olib kirishga faol kirishgan olimlardan edi [5].

Hodi Zarif o'zbek xalq baxshilaridan "Yusuf bilan Ahmad", "Yodgor", "Ravshan", "Rustamxon", "Ochילדov", "Malika ayyor" kabi mashhur dostonlarni yozib olgan. Shuningdek, ertak, qo'shiq va maqollar, dialektologiya va etnografiyaga oid materiallar, tarixga oid hujjat va yodnomalar to'plagan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Nurmon Abduvoy o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li, Xolyor Abdukarim o'g'li, Ahmad baxshi Matnazar o'g'li, Bola baxshi kabi xalq san'atkorlari, ular ijodi haqida ilmiy maqlolar yozgan.

Shu bilan birga olim Hodi Zarif "O'zbek folklori" (ikki jildli), "O'zbek xalq qahramonlik eposi", "Navoiy zamondoshlari", "Fozillar fazilati", "Muhammad Amin Muqimiy", "Alpomish" dostonining asosiy motivlari", "Arshaq – shaq qahramoni", "O'zbek folklorshunosligi tarixidan", "O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari", "O'zbek xalq baxshilari", "Folklor va termin to'plovchilarga qo'llanma" lar yozgan.

O'zbekning folklorshunos olimi 1928 yili folklor, etnografiya va arxeologiya bo'yicha ilmiy tekshirish kabineti tashkil etib, unga mudir bo'ldi. Mazkur kabinet hozirgi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor bo'limining dastlabki tashkiliy asosidir. Shu vaqtidan boshlab olim Hodi Zarif O'zbekistonda folklorshunoslik ishlariga doimiy ravishda rahbarlik qildi va ta'bir joiz bo'lsa umrini so'ngiga qadar folklor ilmi bilan shug'ullandi.

### Xulosa o'rniда

Folklorshunos olim — xalqning ma'naviy merosini asrab qoluvchi, uning ilmiy tahlilini ta'minlovchi eng muhim ma'naviy vazifani bajaradigan shaxsdir. Uning faoliyati natijasida folklor faqat o'tmish qoldig'i emas, balki bugungi madaniyatning bir qismi sifatida yashaydi va rivojlanadi. Bu sohadagi tadqiqotlar xalqning o'ziga xosligi, dunyoqarashi va ruhiy merosini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hodi Zarif va Yanagita Kunio folklorshunoslik sohasida o'z xalqining madaniy merosini saqlash va ilmiy asosda tadqiq etish borasida ulkan hissa qo'shgan ikki yurting buyuk olimlaridir. Xodi Zarifning adabiy-tarbiyaviy tahlili, Yanagita Kunioning antropologik va madaniyatshunoslik yondashuvi, ularning ilmiy mакtablarini shakllantirdi. Ular tomonidan asos solingan metodologiyalar hozirda ham jahon folklorshunosligida qo'llanilmoqda.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Yanagita Kunio. "Tono hikoyalari" (遠野物語). Yaponiya, Tokio. 1910.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. 2006-2008.
3. Goto Souichiro "Yanagita Kunio haqida"(柳田国男伝). Yaponiya. 1998.
4. To'ra Mirzayev "Hodi Zarif suhbatlari", Toshkent, 2013.
5. Jirmunskiy V. M. va Zarifov H. T. "Узбекский народный героический эпос" (O'zbek xalqining qahramonlik eposi). Moskva. 1947.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR  
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Science problems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.